№ 6-AMALIY MASHG‘ULOT



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDAN FOYDALANISH.

Ishning maqsadi *zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yordamida boshlang‘ich sinflarda tayanch fanlarni o‘qitishning elektron taqdimotini Canva onlayn dasturiy ilova misolida yaratishni o‘rgatish.*

Vazifalar:

1. talabalarga mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yetkazishni ta’minlash.

2. mavzuni yoritishda lozim bo‘ladigan dasturiy ilovadan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

3. internetdan ta’limiy maqsadlarda foydalanishning asosiy qoidalarini o‘rgatish.

O‘quv vositalari: *shaxsiy kompyuter, multimediali proektor, ekran, LCD monitor,markerlar, ish daftari, tarqatma materiallar.*

Qisqacha nazariy ma’lumot

Canva – bu ijtimoiy tarmoqlar uchun rasmlardan tortib, chop etish uchun maketgacha bo‘lgan grafik dizayn elementlarini yaratish uchun onlayn xizmatdir. Dastur 2012 yili Avstraliyada kashf etilgan.

Canva bu grafik dizayn platformasi bo‘lib, foydalanuvchilar undan SMM, posterlar, taqdimotlar, hujjatlar va boshqa vizual ishlarni yaratishda foydalanishadi. Saytda tayyor dizayn qoliplari mavjud. Platformani ishlatish bepul bo‘lib, qo‘shimcha imkoniyatlarni taqdim qiluvchi pullik obunalar – Canva Pro and Canva for Enterprise ham mavjud.

Ushbu muharrirning asosiy afzalligi uning soddaligidir. Xizmat dizaynni hamma uchun, hatto chizishni bilmaydiganlar uchun ham ochiq dir. Canvaning pulli va pulsiz xizmatlari mavjud.

Gap sundaki, Canvaning ikkita pulli tarifi mavjud. Birinchisi Pro, oyiga 137448 sumdan. Ushbu tarif maksimal 5 kishiga mo‘ljallangan. Ikkinchisi korxonalar uchun, bir kishi uchun 305440 so‘m. 30 kunlik sinov muddatidan foydalanishingiz va boshqa dasturiy ilovalardan farqini sezishingiz mumkin.

Mashg‘ulot rejasi:

1. **Kirish qismi** *(5 daqiqa)***:**
   1.1. talabalar bilan salomlashish va mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish;
   1.2. amaliy mashg‘ulotni bajarish yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish.
2. **Asosiy qism** *(30 daqiqa)*:
   2.1. talabalarning ish faoliyatini kuzatib borish;
   2.2. to‘g‘ilgan savollarga javob berish;
3. **Yakuniy qism** *(10 daqiqa)*:
   3.1. talabalar ishlarini tekshirish va muhokama qilish;
   3.2. talabalarni rajbatlantirish;
   3.3. talabalar uchun uy vazifalarini berish.
   3.4. mashg‘ulotni yakunlash.

Mashg‘ulot jarayoni:

Mashg‘ulot davomida talabalar faolligini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish;

Har bir talabaga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini yaratib berish;

Talabalarning mashg‘ulotga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga erishish.

Qo‘shimcha tavsiyalar:

Mashg‘ulotni o‘tkazishdan oldin kompyuterlar va dasturlarning ishga tayyorligini tekshirish talab etiladi. Talabalarning bilim darajalari hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga axborot xavfsizligi qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berish lozim.

Ushbu ishlanma boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Boshlang‘ich sinflarda matematika, ona tili, alifbe, texnologiya, science v.b. tayanch fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni tashkil etishni tushuntiring.

Canva onlayn servisidan foydalanib ona tili va alifbe fanlarini o‘qitishga qaratilgan o‘rgatuvchi taqdimot yarating. Taqdimotni yaratishda mos shablonlardan foydalaning.

Taqdimotni quyidagi tuzilishda yarating:

1-slayd – titul slaydi;

2-slayd – mundarija;

o‘rgatuvchi taqdimotga tegishli slaydlar;

10-slayd – Xulosa.

2-topshiriq. Canva onlayn servisidan foydalanib science fanlarini o‘qitishga qaratilgan o‘rgatuvchi taqdimot yarating. Taqdimotni yaratishda mos shablonlardan foydalaning.

3-topshiriq. Canva onlayn servisidan foydalanib matematika fanini o‘qitishga qaratilgan o‘rgatuvchi taqdimot yarating. Taqdimotni yaratishda mos shablonlardan foydalaning.

4-topshiriq. Canva onlayn servisidan foydalanib tasviriy san’at hamda texnologiya fanlarini o‘qitishga qaratilgan o‘rgatuvchi taqdimot yarating. Taqdimotni yaratishda mos shablonlardan foydalaning.